

Kafedra mudiri:

## Raxmatov Rabbim Raxmatovich

**Qabul vaqti:** Chorshanba , Juma (14:00 – 16:00)

**Telefon:** (0 371) 238-64-78

**E-mail:** [r.raxmatov@tuit.uz](mailto:r.raxmatov@tuit.uz)

Oliy matematika kafedrasida birinchilar qatorida 1957 yilda tashkil etilgan. Kafedra 1955 yil tashkil etilgan oliy matematika va fizika kafedrasida asosida tashkil topgan. Oliy matematika kafedrasiga fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent ( 1964 yildan professor) M.K.Kamolov 1957 – 1972 yillar mudirlik qilgan. Oliy matematika kafedrasiga professor M.K.Kamolov vafotidan so'ng, 1973-1975 yillarda fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent M.J. Djurayev mudirlik qildi. Kafedraga fizika-matematika fanlari doktori, professor R.Ya. Suncheleyev (1975-1987 yillarda); fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent E.I. Gegel (1987-1990 yillarda); fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent F.Sh.Majidova (1991-1993); dotsent B.B. Ergashev (1993-1998); dotsent R.N. Usmonov (1998-2003); O'zFA akademigi, professor F.B. Abutaliyev (2003-2012); dotsent Y.M.Abduraxmanova (2012-2013) lar mudirlik qildilar. Oliy matematika kafedrasiga 2013-2014 o'quv yilidan boshlab, dotsent R.R.Raxmatov mudirlik qilmoqda.

Oliy matematika kafedrasida turli davrlarda professor-o'qituvchilar talabalarga chuqur bilim berib, ularning umumtexnik va mutaxassislik fanlarini yaxshi o'zlashtirishlariga asos yaratdilar. Kafedrada uzoq yillar ishlagan, tajribali o'qituvchilar qatorida quyida ismi sharifi zikr etilgan insonlar ham ishlaganlar. Oliy matematikadan katta o'qituvchilar M.G.Gendler, X.Z. Baskina birinchi bo'lib ish boshladilar.

Keyingi yillarda dotsent A.I. Islomov, katta o'qituvchilar A.M. Lebedev, V.A. Xolmskiy, assistent (keyinchalik fizika-matematika fanlari doktori, O'zMU professori) Yo.R. Qo'chqorov; dotsent M.D. Jo'raev, katta o'qituvchi R.Raimov, dotsentlar S.U. Krutyakov, E.S. Kozlova, A.U. Karimov, katta o'qituvchi I. Validjonova, asistentlar R.Kamoliddinova, A.Zaytsev, katta o'qituvchilar J.I. Mirxosilov, R.X. Xakimov, N.E. Alekseyeva, L.V.Frank, V.M. Obushnaya, T. K. Butko, asistentlar A.A. Agatayev, V.M. Gendler, dotsentlar SH.P. Primqulov, F. Buranov, katta o'qituvchi V.A.Jurayeva, I.L.Shopen, A.G.Xodjabagyan, asistentlar A.Sagintayev, M.M.Mamatovlar oliy matematika sirlarini talabalarga o'rgatdilar.

Oliy matematika kafedrasida tashkil etilgan vaqtdan boshlab, o'quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga katta ahamiyat berildi. Kafedra mudiri professor M.K. Kamolov "Tasodifiy miqdorlardan tuzilgan kvadratik fazolar taqsimoti va ularning tatbiqi" ga bag'ishlangan mavzuda ilmiy ish olib bordi. U V.I.Privalovning "Analitik geometriya" darsligini o'zbek tiliga tarjima qildi. Shuningdek kafedra o'qituvchilari bilan hammualliflikda o'quv-uslubiy qo'llanmalarini yaratdi. Uning o'zi o'zbek tilida oliy o'quv yurtlari uchun "Analitik geometriya" darsligini 1962 yilda nashrdan chiqardi.

1998-2003 yillarda kafedraga tajribali o'qituvchilar bilan birga yoshlar ham kelib qo'shildilar. Bular: dotsentlar R.N.Usmonov, A.N.Mirzaev, A.E.Mamatov, R.R.Raxmatov, X.A.Abduvaitov, A.T. Temirbekov, katta o'qituvchi X.M.Bulakbaev, asistentlar: N.A. Pardaeva, X.D. Azizov, M.T. Payzieva, Sh.E. Tadjibayeva, O.I. Abdug'aniyeva, F.S. Raximovalardir.

1996 yilda Informatika kafedrasida tarkibidan "Ehtimollar nazariyasi va Statistika" kafedrasida ajralib chiqdi. Unga fizika-matematika fanlari doktori, professor Sh.A. Miraxmedov mudir etib saylandi. Kafedra yangi tashkil etilgan muhandislik - iqtisodiyot (hozirgi iqtisod va boshqaruv) fakultetiga birlashtirildi. Kafedra ish faoliyatining boshlang'ich davrida akademik Sh.Q. Farmonov, dotsentlar Yu.K.Axatov, Z.S.Chay, O.O. Norxojayev, asistentlar O.A. Saidova, O'.N. Qalandarov mehnat qilishdi. Kafedra faoliyati davomida Sh.A. Miraxmedov rahbarligida 2000 yil O'.N.Qalandarov, 2001 yil O.A. Saidovalar (hozirda Islomova) nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi va universitet miqyosida yagona barcha professor-o'qituvchilari to'raligicha ilmiy darajaga ega bo'lgan kafedraga aylanishdi. Kafedra faoliyati 2002 yil dekabrda tugatildi va "Oliy matematika" kafedrasiga qo'shildi.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan 400 ga yaqin ilmiy maqolalar, 200 dan ortiq uslubiy qo'llanmalar, chop ettirilgan. Akademik F.B. Abutaliyev rahbarligi ostida oliy matematika kafedrasida ilmiy yo'nalishlaridan biri "Ekspert tizimlari asosida bilimlar bazasini qat'iymas mantiq usullari asosida qabul qilish tizimlar matematik modelini va dasturiy ta'minotini yaratish" ga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

2013-2014 o'quv yilidan mutaxassislik fanlar bilan o'zaro uzviylikni ta'minlash maqsadida "Oliy matematika" kafedrasida ikkiga bo'linib, yangi "Algoritmash va matematik modellashtirish kafedrasida tashkil etildi.

Hozirda "Oliy matematika" kafedrasida katta pedagogik tajribaga, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilardan: Dotsentlar: Adirov T.X, Xamdamiyev I.M, O.A. Islomova, Z.S. Chay, S.S.Sadaddinova, katta o'qituvchilar: R.S.Xudazarov, Sh.E. Tadjibayeva, N.A. Pardaeva, K.A. Igamberdiyev, D.S. Yaxshibaev, assistentlar: O.I. Abdug'aniyeva, A.A.Xaitmetov, S.K. Shoyimardonov, M.R. Eshimbetov, N.S.Najimov, M.M.Sagdullayeva, Sh.M.Fayzullayev, M.X.Andayev, M.Z.Sayfullayeva, F.S.Abdullayeva, A.A.Matchanova, J.Sh.Safarov, H.H.Sobirovlar kafedra mudiri dotsent R.R. Raxmatov rahbarligida ishlamoqdalar.

## Dotsent R.R. Raxmatov rahbarligi ostida oliy matematika kafedrasida quyidagi ilmiy yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda

- Uzluksiz muhitlarda keladigan jarayonlarni matematik modellar asosidagi tahlili va uning amaliy tadbiqlari
- Axborot tizimlarida ma'lumotlarni statistik qayta ishlash va xulosa chiqarish usullari

Kafedra professor-o'qituvchilari o'quv uslubiy qo'llanmalarini lotin alifbosiga o'tqazish va chop etish, yangi axborot texnologiyalari (Maple, Matlab) dan oliy matematika fanini o'qitishda foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar yaratish ustida ish olib bormoqdalar.

## Bakalavriat

5330500

Kompyuter injiniringi ("Kompyuter injiniringi", "AT-servis", "Multimedia texnologiyalari")

5330300

Axborot xavfsizligi

5330600

Dasturiy injiniring

5350100

Telekommunikasiya texnologiyalari ("Telekommunikasiyalar", "Teleradioeshittirish", Mobil tizimlari)

5350200

Televizion texnologiyalar ("Audioviziul texnologiyalar", "Telestudiyaya tizimlari va ilovalari")

5350300

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment

5350400

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi

5350500

Pochta aloqasi texnologiyasi

5350600

Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik

## Kafedrada o'qitiladigan fanlar

Bakalavriat:

- Oliy matematika
- Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

## Kafedra professor-o'qituvchilari

- Raxmatov Rabbim Raxmatovich
- Adirov Toliboy Xasanovich
- Xamdamov Isakjan Mamasaliyevich
- Islamova Odila Abduraimovna
- Chay Zoya Sergeevna
- Saddaddinova Sanobar Sabirovna
- Tadjibaeva Shaxzodaxan Ergashevna
- Parдаeva Nilufar Avduvaxabovna
- Igamberdiev Karimberdi Abdullaevich
- Xudazarov Ravshan Saparovich
- Yaxshibaev Doniyor Sultonbaevich
- Xaitmetov Adham Axinjanovich
- Shoyimardonov Sobirjon Komiljonovich
- Eshimbetov Muzaffar Ro'zinboyevich
- Andayev Mashrabjon Xayrullayevich
- Fayzullayev Sherali Mavrutaliyevich
- Najimov Nizomiddin Saydiyevich
- Sagdullayeva Manzura Murodaliyevna
- Sayfullayeva Maftuxa Zayfullaevna
- Abdullayeva Feruza Saydaxmadovna
- Matchanova Aygul Azadovna
- Abduganiyeva Ozoda Ismagilovna
- Safarov Jo'rabek Shakarovich
- Sobirov Hamidullo Habibullayevich

Kafedrada quyidagi ilmiy yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib

## borilmoqda:

- Differensial tenglamalar va matematik fizika
- Matematik analiz
- Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika
- Matematik modellashtirish va sonli usullar
- Deformatsiyalanuvchi qattiq jismlar mexanikasi

**Kafedra manzili:** A-blok, 3 etaj, xona 306, 307, 309, 311.